

"O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida 2025-yilning 1-choragida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumot

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/anticorruption/report/o-zkiyosanoat-aj-va-tarmoq-korxonalarida-2025-yilning-1-choragida-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-sohasida-amalga-oshirilgan-ishlar-yuzasidan-ma-lumot>

"O'zkiyosanoat" AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish va Komplayens boshqarmasi va tarmoq korxonalari Komplayens xizmatlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida 2025-yilning o'tgan 3 oyi davomida belgilangan vazifalar doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, hisobot davrida komplayens nazorat va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar "O'zkiyosanoat" AJ ijro apparati, "Navoiazot", "Dehqonobod kaliy zavodi", "Maksam-Chirchiq", "Ammofos-Maksam", "O'zkiyosanoatloyiha" AJlari hamda "Qizilqum fosforit kompleksi", "O'zkiyoiimpeks" MCHJlarida amalga oshirildi.

Shuningdek, "O'zkiyosanoat" AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi, dastur doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi, Jamiyatga yangi ishga qabul qilingan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashishga oid o'qitish rejasi shuningdek, korrupsion xavf yuqori bo'lgan lavozimda ishlovchi xodimlarni o'qitish dasturi hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashga oid yo'l xaritalari ishlab chiqilib tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvar kuni qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "E-Antikor.uz" elektron platformasiga "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida hisobot yilining o'tgan 3 oyi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlarga oid ma'lumotlar 5 ta yo'nalishda 29 ta maxsus indikatorlar asosida platformaga biriktirildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 14-iyundagi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Jamiyat va uning tizim korxonalaridagi Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan 19 turdagi ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar tashkilotning rasmiy veb saytlariga joylashtirib borilishi ta'minlandi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Jamiyatning jami 58 ta funksiyalardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholashdan o'tkazilib, "E-Antikor.uz" elektron platformasiga joylashtirildi. Jamiyat faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tasdiqlangan holda jamoatchilikka ochiq e'lon qilindi.

Baholash natijalariga ko'ra korrupsion xavf yuqori deb topilgan funksiyalardagi xavf-xatarlarni kamaytirishga oid "O'zkiyosanoat" AJ, uning tarkibiy va xududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi tasdiqlanib, unda belgilangan tadbirlar bo'yicha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyunda qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunining mohiyati va ahamiyatini Jamiyat boshqaruv xodimlariga tushuntirish yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan xamkorlikda seminar tashkil etildi.

Bundan tashqari, "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qabul

qilingan "O'zkiyosanoat" AJda

16 ta, "Navoiyazot" AJda 29 ta, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda 9 ta, "Maxam-Chirchiq" AJda 15 ta, "Ammofos-Maxam" AJda 11 ta hamda "O'zkiyoiimpeks" MCHJda 11 ta ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilib, jami aniqlangan 18 ta holatdagi korrupsion omillarni bartaraf etish choralari ko'rildi.

Hisobot davrida "O'zkiyosanoat" AJ va tizim korxonalarida rastrata, o'g'irlik, kamomad, korrupsion va boshqa qonunbuzilishlar bo'yicha jami 15 ta holat aniqlandi. Ular bo'yicha tegishli tartibda o'rganishlar o'tkazilib, rasmiylashtirish choralari ko'rilmogda.

"O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalari tomonidan o'tkazilgan tender tanlovlari va tuzilgan shartnomalarning qonuniyligi hamda manfaatlar to'qnashuvi holatlarining mavjudligi bo'yicha jami 562 ta holatda kontragentlar bo'yicha tekshiruv o'tkazildi. O'rganish natijasiga ko'ra 3 ta holatda tender tanlovlari va tuzilgan shartnomalar bekor qilinib, katta miqdorda pul mablag'larining noqonuniy sarflanishi oldi olindi. Jamiyat va uning tarmoq korxonalari tashkil etilgan "Odob-ahloq" komissiyalari tomonidan tizim xodimlarining odob-ahloq normalariga amal qilish xolatlari yuzasidan jami 41 ta ishlar ko'rib chiqilib, komissiya xulosasiga ko'ra 3 ta xodim intizomiy javobgarlikka tortilib, 18 ta xodimlar boshqa lavozimlarga rotatsiya qilindi.

Hisobot davrida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Jamiyat va uning tarmoq korxonalariga (og'zaki, yozma va ishonch telefoni orqali) korrupsion va boshqa qonun buzilish holatlari yuzasidan jami 11 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, shundan 10 tasi yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazildi. Uning natijalariga ko'ra 1 ta holatda jinoyat ishi qo'zg'atilgan, 7 nafar xodim intizomiy javobgarlikka tortilgan, 140 million so'm zarar yetkazilganligi aniqlanib, shundan 70 million so'mi jamiyat hisobiga undirilishi ta'minlandi. Shuningdek, monitoring tadbirlari davomida mineral o'g'itlarning to'g'ri va sifatli saqlanayotganligi, tuzilgan shartnomalarning qonuniyligi, iste'molchilarga yetkazib berish tartibiga rioya qilinishi holatlari o'rganilib, kelgusida korxona mulki talon-taroj qilinishining oldini olish yuzasidan tegishli choralar ko'rildi.